IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680
E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934
IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 7,245
SPECIAL ISSUE, VOLUME 5, ISSUE 2, 2023

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYANING PSIXOLOGIK MUAMMOLARI YECHIMI

Z.L.Botirov T.f.d dotsent.
X.Ilhomov Assistent.
D.Nabiyeva Talaba.

Annotatsiya
Maqolada ta’lim-tarbiya mazmuni to hozirgi kungacha kommunikatsiya, ya’ni biryoqlama axborot uzatish (o‘qituvchi axborot manbai, o‘quvchi esa uni qabul qiluvchi) asosida qurilib kelinmoqda, vaholanki, u kommunikatsiya (uzatish, ta’sir o‘tkazish), interaksiya (o‘qituvchi bilan o‘qituvchilarning o‘zaro ta’sir o‘tkazishi), persepsiya (insonni inson tomonidan idrok qilish, ya’ni o‘quvchilarning o‘qituvchi yoki o‘qituvchining o‘quvchi tomonidan idrok qilish) singari tarkiblardan iborat bo‘lishi lozim.

Kalit so’zlar
Pedagogik, psixologik, ta’lim-tarbiya, pedagogik, tizim, texnologiya, metod.

Pedagogik va psixologik adabiyotlarda ta’limni takomillashtirish, o‘quv-tarbiya jarayonini optimallashtirish, rivojlantiruvchi ta’lim, ta’limning faol yangi (innovatsion) metodlari, muammoli o‘qitish metodi, programmalashtirish ta’lim kabi atamalar negizida o‘nlab nazariyalar, yondashishlar to‘g‘risida ma’lumot berilgan. Har qaysi konsepsiya o‘z zamonasi uchun ilmiy progressiv g‘oyani ilgari surgan va ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini muayyan darajada oshirishga xizmat qilib kelgan. Lekin ularning har biri alohida ilmiy uslubiy jihatdan tahlil qilinsa, o‘zining bir tomonlamaligi va mangulikka daxldor ekanligi bilan ko‘zga yaqqol tashlanadi. Bunday umumiy nuqsonning asosiy sababi pedagogik texnologiyaning barcha tarkibiy qismlarining ham nazariy mulohazada, ham amaliy faoliyatda qamrab olinmaganligidir.

Ushbu kamchilikni keltirib chiqaruvchi bosh omil-ta’lim (tarbiya) jarayoniga subyekt (o‘qituvchi) sifatida maqom (status) va rol berib kelinganligidir. Binobarin, ta’lim-tarbiya jarayoni bir tamonlama ta’sir o‘tkazish va axborot (ma’lumot, bilim) uzatish, har xil xususiyatli malakalarni shakllantirish tamoyillariga bo‘ysundirilgandir. Natijada ta’lim-tarbiya jarayonining ishtirokchilari o‘qituvchi bilan o‘quvchilar o‘rtasida teng huquqiylik buzilishi yuz berganligi tufayli birining ikkinchisi ustidan ustuvorligi hukmronligi qonuniy ahamiyat kasb etgan. O‘quvchilar (talabalarning ehtiyoji, o‘quv motivlari tabiiy mayllari iste’dodi, salohiyati, saviyasi, o‘quvi) zehni mazkur jarayonda hisobga olinmagan. Ta’lim tarbiya jarayonida subyekt (o‘qituvchi)-subyekt (o‘qituvchi yoki talaba) munosabati yaratilmas ekan, samaradorlik mustaqil (ijodiy) fikrlash to‘g‘risida gap bo‘lishi mumkin emas.

Bizningcha, pedagogik tizim va uning texnologiyasi shartli ravishda quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo‘lishi mumkin:

- ta’lim-tarbiya ishtirokchilari (o‘qituvchi va o‘quvchilar) shaxsiyatiga qo‘yiladigan ijtimoiy talablar (jamiyatning komil insonga nisbatan ehtiyoji);
- hamkorlik faoliyati a’zolarining kasbiy tayyorgarligi darajasiga nisbatan ijtimoiy ehtiyoj (buyurtma);
- ta’lim va tarbiya jarayonining maqsadi;
- ta’lim va tarbiya jarayonining mazmuni, mohiyati;

- ta’lim va tarbiya jarayonining amalga oshirish vositalari (metodlar, usullar, texnik vositalar, darsliklar,qo‘llanmalar va h.k);
- ta’lim va tarbiya jarayonini individuallashtirish yoki differensiallashtirish;
- real sharoit, favquloddagi vaziyat, ikkiyoqlama (o‘qituvchi bilan o‘quvchilar xohishi) ishtiyoqini hisobga olib texnologik o‘zgartirishlar kiritish;
- ijodiylik, ixtiyoriylik amaliyotining nazariyadan ustuvorligi muammosi birlamchi ekanligiga rioya qilish kabilar.

Ta’lim-tarbiya mazmuni to hozirgi kungacha kommunikatsiya, ya’ni biryoqlama axborot uzatish (o‘qituvchi axborot manbai, o‘quvchi esa uni qabul qiluvchi) asosida qurilib kelinmoqda, vaholanki, u kommunikatsiya (uzatish, ta’sir o‘tkazish), interaksiya (o‘qituvchi bilan o‘qituvchilarning o‘zaro ta’sir o‘tkazishi), persepsiya (insonni inson tomonidan idrok qilish, ya’ni o‘quvchilarning o‘qituvchi yoki o‘qituvchining o‘quvchi tomonidan idrok qilish) singari tarkiblardan iborat bo‘lishi lozim. Ilg‘or pedagogik texnologiyaga asoslangan rivojlangan mamlakatlarning pedagogik tizimi tajribasi amaliy ko‘nikmalarni nazariy bilimlardan ustunroq (60% va 40%) bo‘lishni tasdiqlamoqda. Birinchi galdagi vazifa ta’lim-tarbiya mazmunini davr, zamon talabiga moslashtirishdan iboratdir. Ta’lim-tarbiya faol, innovatsion, noan’anaviy yo‘llarni o‘quv fanlarning o‘ziga xosligidan kelib chiqqan holda yaratish va ularni (o‘quvchi, talaba yoshiga, jinsiga) amaliyotga tatbiq etish.

Pedagogik tizimni takomillashtirish va pedagogik texnologiyani ta’lim-tarbiya jarayoniga muvaffaqiyatli tatbiq etish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq;

- O‘qituvchi professiogrammasi (psixogrammasi) ni zamon talabiga binoan yaratish;
- O‘quvchi (talaba) saviyasi, shaxsi, xarakteri, iste’dodi, intellekti, xulqi, malakasi, irodasi, ehtiyoji, motivi va his-tuyg‘usini baholash testlarini ishlab chiqish;
- O‘quvchilar (talabalar) va o‘qituvchilarda muayyan fazilatlar, xislatlar, sifatlar, xususiyatlarni shakllantirish uchun trening, ishbilarmonlik o‘yinlari, fikrlar jangi va maxsus mashqlardan unumli foydalanish;
- O‘qituvchi malakasini oshirish va qayta tayyorlash yo‘llarini takomillashtirish, ularda ijodiy izlanishlarni shakllantirish.
- O‘quvchilar (talabalar) yoshiga, fanlarning mohiyatiga binoan pedagogik texnologiyaning vositalarini saralash va zamonaviysini kashf qilish;
- Matnlarda bayoniylikdan chekinish va muammolik, ijodiylik, mustaqil fikrlashga o‘tish.
- Ta’lim-tarbiya jarayonining faol, innovatsion, noan’anaviy, ijodiy uslublari va shakllarini amaliyotda qo‘llash: darsning tuzilishi va bosqichlari to‘g‘risidagi rasmiyatchilikdan qutilish, majburiylikdan xalos bo‘lish orqali ixtiyoriylikka o‘tish va undan shaxslararo moslikka, tenglikka erishish.

Ta’lim-tarbiya jarayonini (o‘qituvchi bilan o‘quvchilar va o‘qituvchilarning o‘zaro) hamkorlik faoliyatiga aylantirish “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” ning amaliy ifodasini qaror toptirishni tezlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Pedagogy and Practice; Teaching and Learning in Secondary Schools.

2. Michael Uljens.School Didactics and Learning: A School Didactik Model Framing an Analysis of Pedagogical Implications of Learning Theory 2008-y.

3. John Dewey,How we think(1910).Martin,Jay.The Education o f John Dewey.(2003) Columbia University Press.Gutek Gerald L.(2009)New Perspectives on Philosophy and education .Pearson Education Inc.

4. Ismadiyarov, Y., & Nabiulina, L. (2019, November). Informational ensuring innovative management of higher education system. In 2019 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT) (pp. 1-5). IEEE.

5. R.A.Mavlonova, O.To‘rayeva, K.M.Xoliqberdiyev. Pedagogika.Darslik T :.0 ‘qituvchi 2008-yil

6. Ismadiyarov, Y., Nabiulina, L., Matnazarova, M., Mulahmetov, R., Suleimenova, U., & Satimbekova, A. (2021). Multicomponent Structural and Logical Model of Innovative Management in Higher Education and the Mechanisms for its Implementation. Известия высших учебных заведений. Технология текстильной промышленности, (3), 187-195.

7. R.A.Mavlonova, N.H.Vohidova, N.H.Raxmonqulova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Darslik T:. Fan va texnologiyalar. 2010-yil

8. K.Xoshimov, S.Ochilov. 0 ‘zbek pedagogikasi antologiyasi.O‘quv qo‘llanm a.T:.0‘qituvchi 2010-yil

9. Ergashevna, S. N. (2023). NARRATIVE REPERTOIRE AND ITS INFLUENCE ON THE EPIC TRADITION. ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 12(3), 33-43.

10. R.A.Mavlonova, N.H.Vohidova, Ijtimoiy pedagogika. 0 ‘quv qoilanm a. T.: Noshir 2009-yil.

WORDLY KNOWLEDGE